

**GAZ SANOATI KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHNING
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI**

**IIm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va
zamonaviy ta'limning o'rni hamda rivojlanish omillari**



Hamitov Faxri Maxmut o'g'li - Jizzax

*politexnika instituti muhandislik
kommunikatsiyalari kafedrasi assistenti*

hamitovfahri@gmail.com

Хамитов Фахри Махмут угли –

*ассистент кафедры инженерных
коммуникаций Джиззакского
политехнического института*

hamitovfahri@gmail.com

Hamitov Fakhri Makhmut ugli – assistant

*at the Department of Engineering
Communications, Jizzakh Polytechnic*

Institute

hamitovfahri@gmail.com

Kirish

Gaz sanoati har qanday davlat uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoq bo'lib, uning samarali moliyalashtirilishi energetik xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va sanoat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Bugungi kunda gaz sanoati korxonalarida mavjud moliyaviy tizim asosan davlat byudjeti va tijorat kreditlariga tayangan holda faoliyat yuritmoqda. Ammo bunday yondashuv keng ko'lamli infratuzilmaviy ehtiyojlarni qoplashda yetarli emas. Shu sababli, moliyalashtirish tizimini zamonaviy va diversifikatsiyalashgan mexanizmlar orqali takomillashtirish muhim masala hisoblanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi zamonaviy moliyalashtirish usullari chuqr o'rganildi, xususan, muallif Tanaka, H. fikricha, loyihamiy moliyalashtirish

investorlar va kredit beruvchilar o'rtasida xatarlarni taqsimlab, sarmoya jalg qilishni osonlashtiradi. Ushbu yondashuv kapital talab qiluvchi gaz infratuzilma loyihalari uchun juda muhimdir¹. Mualliflar Singh va Kumar ta'kidlaganidek, DXSh uzoq muddatli infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirishda davlatning kafolatlari va xususiy sektorning tajribasi asosida moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi².

Lee va Park gaz sanoatida ekologik mezonlar asosida investitsiya jalg etish nafaqat atrof-muhit muhofazasiga xizmat qiladi, balki xalqaro "green bond" bozorlariga chiqish imkonini ham yaratadi deb keltirganlar³. Muallif Phamning tadqiqotida ta'kidlanishicha, **Jahon banki** va **Osiyo taraqqiyot banki** kabi yirik moliya institutlari kredit suvereniteti, kafolatlar va texnik yordam mexanizmlari orqali gaz infratuzilmasiga sarmoya jalg etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ularning ishtiroki loyihalarning moliyaviy ishonchlilagini oshirib, investorlar uchun xavflarni kamaytiradi deb keltirilgan⁴.



¹ Tanaka, H. Project financing for large-scale gas infrastructure: Risk allocation and investment attraction. Journal of Energy Economics, 2018, 74, 185–195. <https://doi.org/10.1016/j.eneco.2018.06.012>.

² Singh, R., & Kumar, P. Public-private partnerships in the energy sector: Ensuring financial sustainability for long-term infrastructure projects. Energy Finance, 2016, 10(2), 89–101. <https://doi.org/10.1080/1758290X.2016.1149503>.

³ Lee, J., & Park, S. Green finance in the natural gas industry: Environmental criteria and access to green bond markets. International Journal of Energy Research, 2017, 41(12), 1734–1747. <https://doi.org/10.1002/er.3754>.

⁴ Pham, T. D. International financial institutions and investment mobilization in gas networks. Vietnam Journal of Energy, 2020, 15(3), 98–110.

1-rasm. Asosiy zamonaviy moliyaviy mexanizmlar⁵

Shu bilan birga blokcheyn texnologiyalari, smart-kontraktlar va moliyaviy platformalar yordamida moliyaviy operatsiyalarda shaffoflik, tezkorlik va ishonchlilik ta'minlanadi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni kursatadiki, Tadqiqotda Yevropa, Osiyo-Tinch okeani (APAC), Afrika/Lotinam, va MDH davlatlarining gaz sohasidagi moliyalashtirish amaliyotlari solishtirma tahliliga asosan Yevropada PPP va green bondlar asosida investor ishonchini oshiradi, APACda ADB, WB bilan sheriklik asosida infratuzilmaviy barqarorlikni ta'minlaydi, Afrika/LACda esa Grantlar, donorlar bilan ekologik barqarorlikni kuchaytiradi, MDHda Davlat markazlashgan moliyalashtirish modeli qisqa muddatli barqarorlikka ega.

Shuni aytish kerakki, gaz sanoati kapital talabchan tarmoq bo'lib, yirik magistral gaz quvurlari, qayta ishslash zavodlari va gaz-kimyo majmularini qurish uchun milliardlab dollar talab etiladi. O'zbekistonda ko'plab loyihalar asosan davlat byudjeti yoki cheklangan hajmdagi tijorat bank kreditlari hisobidan moliyalashtiriladi.

Biroq, bu manbalar uzoq muddatli investitsion ehtiyojlarni to'liq qoplamaydi. Bunda **loyiha moliyalashtirish (Project Financing)** mexanizmini joriy etish, bunda loyihaning o'zi garov sifatida ishlaydi va davlat kafolatisiz xorijiy investor mablag' jalb qilinadi. Shu bilan birga **Davlat-xususiy sheriklik (PPP)** asosida gaz omborlari, qayta ishslash zavodlari va gaz transporti tarmoqlarini qurishga yordam beradi.

Navbatdagisi moliyalashtirish **manbalarining diversifikatsiya qilish lozim hisoblanadi**. Hozirgi tizimda moliyalashtirish manbalari asosan davlat byudjeti va tijorat banklarining ichki kreditlariga tayanadi. Bu tizimning barqarorligi past, chunki ichki moliya bozorining chuqurligi yetarli emas. **bunda esa, yashil obligatsiyalar** chiqarish orqali xalqaro investorlardan mablag' jalb etish, xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalarini jalb qilish (Jahongir banki, OTB, ETTB) va **Sovereign wealth fund** yoki milliy

⁵ Muallif ishlanmasi.

investitsiya fondlari orqali yirik loyihalarni moliyalashtirish maqsadga muvofiqdir.

Global iqlim o'zgarishi va Parij kelishuvi majburiyatlarini tufayli gaz sanoati korxonalaridan issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish talab etilmoqda. Bu esa qo'shimcha investitsiya yukini keltiradi. Bunda **yashil moliyalashtirish** vositalaridan foydalanish (Green bonds, carbon credits), Xalqaro ekologik fondlardan mablag' jalb qilish (Global Environment Facility, Green Climate Fund), Chiqindi gazlarni utilizatsiya qilish va issiqlikni qayta ishlatish texnologiyalarini joriy etish zarurdir.

Xulosa

O'zbekiston gaz sanoatini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish mamlakatning energetika xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va sanoat rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda amaldagi moliyalashtirish tizimi asosan davlat byudjeti va tijorat bank kreditlariga tayanadi, bu esa yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli emas. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, loyihaviy moliyalashtirish, davlat-xususiy sheriklik, yashil moliyalashtirish vositalari hamda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kabi zamonaviy mexanizmlar kapital talab qiluvchi loyihalar uchun samarali yechim hisoblanadi. Bunday yondashuvlar xatarlarni taqsimlash, investorlar ishonchini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkonini beradi. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, suveren investitsiya fondlarini ishga tushirish, donor mablag'larini jalb etish va blokcheyn asosidagi moliyaviy platformalardan foydalanish orqali tizimning shaffofligi, tezkorligi va ishonchlilagini oshirish mumkin. Shu yo'l bilan gaz sanoatini moliyalashtirish tizimini isloh qilish nafaqat investitsiya oqimini ko'paytiradi, balki energiya samaradorligini oshirish, ekologik talablarga rioya qilish va O'zbekistonning mintaqaviy energiya markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tanaka, H. Project financing for large-scale gas infrastructure: Risk allocation and investment attraction. *Journal of Energy Economics*, 2018, 74, 185–195. <https://doi.org/10.1016/j.eneco.2018.06.012>.
2. Singh, R., & Kumar, P. Public-private partnerships in the energy sector: Ensuring financial sustainability for long-term infrastructure projects. *Energy Finance*, 2016, 10(2), 89–101. <https://doi.org/10.1080/1758290X.2016.1149503>.
3. Lee, J., & Park, S. Green finance in the natural gas industry: Environmental criteria and access to green bond markets. *International Journal of Energy Research*, 2017, 41(12), 1734–1747. <https://doi.org/10.1002/er.3754>
4. Pham, T. D. International financial institutions and investment mobilization in gas networks. *Vietnam Journal of Energy*, 2020, 15(3), 98–110.